

**PAVEL PETROVICH BENKOV O 'ZBEK RASSOMI SIFATIDA**

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası

*dotsenti **M.B. Azimova***

m.b.azimova@buxdu.uz

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası talabalari

Sayfullayev Quvonch Avliyoqulovich

Kamolova Xadichabonu Shavkat Qizi

Hamroyeva Xolniso Alisherovna

Xasanova Jasmina To 'lqin Qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasviriy san'at asarlarini tahlil qilishning asosiy uslublari va yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Xususan, mashhur rassom va pedagog Pavel Petrovich Benkovning ijodi misolida san'at asarlarini tahlil qilishning estetik, tarixiy, uslubiy va psixologik yondashuvlari o'rganiladi. Benkovning asarlari milliy va zamonaviy san'at an'analari uyg'unligining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Shuningdek, uning pedagog sifatidagi faoliyati va o'zbek tasviriy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Ushbu maqola san'atshunoslar, o'qituvchilar va talabalarga tasviriy san'at tahlili bo'yicha ilmiynazariy yondashuvlarni tushunishda yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Rassomlik, maktab, teatr, akademiya, dekorativ, oqituvchi, me'morchilik, ijodiy, madaniyat, tasviriy san'at, san'at asari tahlili, uslub, yondashuv, P. P. Benkov, san'atshunoslik, pedagogika.*

Pavel Petrovich Benkov (1879-1949) O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. U 1901 yilda Qozon badiiy maktabini tugatgan. 1901-1909 yillar mobaynida P.E.Kardovskiy va I.E.Pepin rahbarligida Peterburg Badiiy Akademiyasida shug'ullangan. 1909 yilda Parijning Jyulen Akademiyasida tahsil oldi. Avval Qozonda, so'ngra Samarqandda pedagoglik faoliyatini olib bordi.



XX asrning boshida Turkistonda badiiy rassomchilik maktabi hali shakllanmagan bo'lib, bu ijodiy muhitning ayrim, shariatlari haqida so'z yuritish mumkin. Bu jannatmakon o'lkaga, ixlos ko'rgan rassomlarning tashabbusi L. V. Shostko Samarqand davlat muzeyi ko'riqxonasi 2007-2008 yillar. 1919 yilda birinchi Samarqand badiiy bilim yurti ochildi. Uning faoliyati mahalliy rassomlarni tayyorlashlashga qaratildi. U ikki yil faoliyati ko'rsatdi va O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'ati, tarixida eng yorqin saxifa bo'lib qoldi. P.P Benkov O'zbekiston badiiy namoyondalarini tayyorlashda katta ulush qo'shdi. Samarqand badiiy bilim yurtida 1930-1947 yillar o'qituvchilik qildi.

U A.Abdullaev, L.Abdullaev, R.Axmedov, Sh.Xasanova kabi o'zbek rassomlariga ustozlik qildi. 1928 yilda O'zbekistonga kelib umrining oxirigacha shu diyorda qoldi va o'zining eng nodir asarlarini shu yerda yaratdi. Rassomni o'ziga maftun qilgan qadimgi Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarining o'rta asrlar yodgorliklarining go'zalligi jozibasi, shubhasiz moviy osmon, mehnatsevar xalqi, betakror, jannatmakon tabiati batamom o'ziga sexirlagan edi. Sharqning o'ziga xosligi, noyobligi musavvir uchun kuch yig'guncha emas edi. O'rta Osiyoga xos ijodkor ijodida izlanishlarida, Ozuqa bo'lib xizmat qildi, yangicha talqin qilish eshiklarini ochdi.

P.P.Benkovni ijodkor sifatidagi o'ziga xosligi yuksak e'tirofga loyiqdir. Rassomning ijodi O'zbekiston zaminida etildi, uning mahalliy xalq hayotiga qiziqishi rasm solishda o'ta sinchkovlik bilan yondashgan, tabiatning betakror maftunkorligi manzara usulida o'ziga xos ifoda uslubini paydo bo'lishiga, avvallar e'tiborga molik bo'lmagan me'moriy manzara ko'ha turmushning ifodasiga aylandi.

Rassomning Buxoroda, yashagan davri (1928-1929y) juda sermahsul bo'ldi. Uning Buxoroda yaratgan asarlari Buxoro davlat muzeyi ko'riqxonasidan tashqari O'zbekiston Respublikasi Davlat san'ati muzeyi, Sharq xalqlari Davlat san'ati muzeyida Samarqand davlat muzeyi ko'riqxonasida, Moskvadagi Piretyakov galsreyasida, Zinaida Kovalevskayaning oilasida, hamda rassomning qizi N.P.Benkovaning shaxsiy kolleksiyasida saqlanmoqda. P.P.Benkovning manzara

janrida yaratgan polotnolarida Buxoro zaminining betakror tabiati, xalq turmushinig o'ziga xos milliy xususiyatlari badiiy mahorat bilan ifoda etilgan, mahalliy ranglar xilma-xilligi aniq va to'laqonligi tasvirlangan. Bu asarlar qalamning erkin harakati va uning qamrovi bilan ajralib turadi.

Xo'ja Zayniddin bobo masjidi (1928 y) manzarali kartinasida rassom erta tong pallasidagi borliq olam ko'rinishini nozik merizm bilan ifoda etgan. Masjid tomonga organ zangor quyosh navdalari bo'lgan. Rassom bu yerda zangori rangning bor tusini sovuq zumrad rangdan tortib to'qi issiq ranggacha sariq, sarg'isht rangda aks ettirgan. Xovuzning mayin moviy suvi osmon moviyiligi, teranligi va nozikligi bilan omuxta. Mo'yqalam sohibi ranglar yorqinligini farqni tizgizlash yo'li bilan emas, balki ranglarni o'rni o'rniga qo'yish bilan hosil qilgan. P.P Benkov asarlaridagi soyalar, ranglarning ustakorona, qo'llanilishi tufayli o'zining yengilligi nozikligi bilan ajoyib ta'surot tug'diradi. Kartina politrasini har qancha yorqinligi dog'lar joylashuvida ola-bulalik va tasodifiylik go'zaga keltirmaydi. Ulardagi o'ziga xos ritm va ranglar mantig'i mavjud. Bu polotnolar rassom mo'yqalamining erkin, dadil harakati va bilan ajralib turadi.



Ushbu turkum manzaralariga rassomning "Kuzgi tok niholi", "Jo'ybor xovuzi" 1928, "Kuzda Jo'ja Zayniddin bobo hovuzi yonida", 1929 yildagi asarlari kiradi.

P.P.Benkov jiddiy va muhim voqealarni alohida va ayrib ishlaganligi bilan kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Ularda xarakterli va yirik xislatlar aniq ravshan payqab olingandir.

"Bunga, Piyola ushlagan" (1929) kartinasini misol kilish mumkin. Unda mag'rur, O'z insoniy qadr qimmatini to'la anglagan kishi ifodalangan. Uning yextirolar qurshab ketgan keng yonoqli yuzlar, moshguruch cho'qqi soqoli



moxirona, tasvirlangan. O 'rtacha ko 'zlari kishiga kibr bilan bezayotgandek basavlat qomati xuddi qilgandek tovlanadi. Ranglar uyruhligidan ustalik bilan foydalangan rassom riyolarni kompozitsiya markazining yagona nuqtasi qilib ko'rsata bilgan.

Rassom sallaning ko 'kish rangini cho'ponning to'q ranglariga uzviy ravishda xam oxang qilib yuborgan. Poritrey shaxs xarakterini chuqur psixologik xolatda yoritganligi bilan qadrlidir. P.P.Benkovning o 'ta o 'tkir xarakterli portret kartina asari, Buxoro amaldori" 1928 yil chizilgan bo 'lib, unda o 'z mavqeyini, qadr-qimmatini teran anglagan murakkab hayot sinovlarida toblangan, xech qanday kuch irodasini eta olmaydan, o 'ziga ishongan, oldingi xayotidan nolimaydigan inson kiyofasini ustalik bilan tasvirlagan.

Har taraflama serzavq ranglar mazkur portret dexam yaqqol ko 'zga tashlanadi. Kartina muhiti vazmin, salmoqli och sariq, to 'k sariq, zangori, qizil, oq ranglar tashkil topgan. Poritreyskiyning holdan to 'ydiruvchi isyonchilik va quruq detallardan iborat bo 'lmay, ko 'z o 'ngimizdagi mohir usta istedadli rassom vositasida yaratilgan to 'kis emotsional ifodaviylik va dadil plastik badiiy obraz namoyon bo 'ladi. Buyuk rassomning Buxoro mavzusida yaratilgan „Buxoro bozori“, „Choyxona“, „Buxoro kuchasi“, „Meshkobchilar Xovuz buyida“, „Chor minor“, „Xattot“ va boshqa asarlari(1929-1930 yillar) Buxoroning qadimgi va nodir yodgorliklari, qaynoq xayoti, odamlarning o 'ziga xos xislatlarini ishonarli tasvirlaydi.

P.P.Benkov asarlarida rang va nur birgalikda issiq jazirama va salqin-sovuq xislar uy g'otadi. Rang rassomning joni dili orqali musavvir insonga va borliqqa o'z munosabatini ifoda etadi.

U o 'z asarlarida O 'zbekiston tabiatini nihoyatda, joziba bilan ifodalay bilgan kamdan kam mo 'y qalam sohibidir. U qaysi mavzuda ishlamasin, rang uning tasviriyy tuyg 'uga boy, rang tasvir asarlaridagi ifodaviylikning bosh mezonini bo 'lib qoladi. P.P.Benkov O 'zbek rang tasviriga, ilg'or mashhur rassomlar, tajribasini rassomlari tajribasini, o 'zining shaxsiy ijodi bilan uyg 'unlashtirib olib kiradi.



U o‘z shogirtlariga ham nazariy, ham amaliy jixatdan puxta professional ta’lim berdi. Uning o‘nlab iqtidorli shogirdlari ustoz ijodini boyitib o‘zbek rang tasvir san’atini yangi marralarga olib chiqdilar.

21 aprel 2020 yilda, „Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini oshirish chora tadbirlari turrisida“gi 46-88 sonli O‘zbekiston Respublikasi qarori qabul qilindi. Unda buyuk siymo o‘zbek mujaz tasviriy san’ati asoschilaridan biri Kamoliddin Behzod tavalludining 570 yilligini munosib kutib olishga qaratilgan chora tadbirlar muhim o‘rin olgan. Qarorga ko‘ra, Respublika iqtisoslashgan rassomlik maktabiga yurtimiz tasviriy san’atiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli ijodkor Pavel Petrovich Benkov nomi beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. European science, (3 (59)), 53-56.
2. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. European science, (2 (58)), 38-40.
3. Азимова, М. Б., & Ибадуллаева, Ш. И. (2017). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида). Евразийский научный журнал, (2), 379-383.
4. Ибадуллаева, Ш. И., & Амонова, Р. Ж. К. (2022). Коммуникативные Основы Художественной Культуры. Miasto Przyszłości, 28, 169-173.